

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2021-3**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2021**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир ҳайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

*Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.*

*Абдуллаев Рашидан Бабажонови, тиб.ф.д., проф.*

*Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.*

*Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.*

*Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.*

*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*

*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.*

*Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.*

*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*

*Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.*

*Кадиров Шавкат Юлдашевич, қ/х.ф.н.*

*Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.*

*Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.*

*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*

*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*

*Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.*

*Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*

*Рўзимбоев Сапарбой, ф.ф.д., проф.*

*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*

*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*

*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*

*Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.*

*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*

*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*

*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*

*Чўпонов Отаназар Отожонови, ф.ф.д., доц.*

*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*

*Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.*

*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*

*Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*

*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*

*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3 (73), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. – 344 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2021

<b>Ражабов З.П., Жуманиязов Ф.К.</b> Fўзанинг янги истиқболли Хурма нави .....	111
<b>Сафаров А.А., Сафаров С., Султонов Д., Бахриддинов А.</b> Пахта хом-ашёсини сақлаш жараёнида ҳарорат ўзгаришини сифат таъсирини ўрганиш .....	113
<b>Сулаймонов И.Ж., Жўраев А.А.</b> Минерал ўғитлар меъёрларини қанд лавлагининг илдимевасида шакар тўпланишига боғлиқлиги .....	115
<b>ТЕХНИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>Djuraev M.K.</b> Axborotni kiritish va uzatish usullari yordamida matnlardagi xatolarni kodlash .....	120
<b>Ходжиев Х.Ш., Камалова М.Б.</b> Саноат оқава сувларини кўмир адсорбентлари ёрдамида тозалаш .....	125
<b>Шодиев А.З., Асланов Б.М., Ходжиев Х.Ш., Камалова М.Б.</b> Исследование качества кирпича на основе нетрадиционных добавок .....	127
<b>ТАРИХ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Allanazarov S.</b> Qadimgi xorazm madaniyati tarixiga oid manbalarning qiyosiy tahlili .....	133
<b>Qayumova F.I.</b> Xiva xonligi tarixini o'rganishda manbalarning o'rni .....	135
<b>Бекиметов У.</b> Советларнинг коллективлаштириш ва кулоклаштириш сиёсатига қарши Хоразмдаги халқ ғалаёнлари .....	137
<b>Машарипов Қ.</b> Хоразмшоҳ – Ануштегинлар давлатида ҳарбий санъат тараққиёти .....	139
<b>Машарипов Қ.Ю.</b> Жалолиддин Мангуберди кўшини сони хусусида баъзи мулоҳазалар .....	143
<b>Машарипов Қ.Ю.</b> Жалолиддин Мангубердининг Кавказорти давлатлари билан сиёсий муносабатлари муаммоси .....	146
<b>Рашидов О.Р.</b> Бухорода жадидчилик ҳаракати ва унинг Ёш бухороликлар партиясига айланиши .....	149
<b>Савриев Ж.Ф.</b> Карманадаги Работи-малик сардобаси қурилиш лойиҳаси - қайта таъмирланиши, маиший аҳамияти .....	153
<b>Тошбоева З.</b> Амир Музаффар бошқаруви Аҳмад Дониш нигоҳида .....	159
<b>Хакназаров Х.Д.</b> Ҳарбий анъаналар – ҳарбийлар кундалик турмуш-тарзининг муҳим аспекти сифатида .....	161
<b>ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Ruzmetov Sh., Xudayberganov D., Yusubov I.</b> Banklarning raqamlashtirilgan xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari .....	166
<b>Сапаева Н.Қ.</b> Минтақа иқтисодиётининг барқарор ривожланиши ва унинг омиллари .....	169
<b>Халикова Л.Н.</b> Форобийнинг иқтисодий масалалар бўйича фикрлари .....	173
<b>ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Abdunazarova I.M.</b> The role of foreign language in formation the worldwide of students .....	177
<b>Ahmedov U.</b> O'zbek va ingliz maqollarining badiiyati qiyosi .....	178
<b>Anvarova S.Sh.</b> "Devonu lug'otit-turk"dagi monarx tushunchasi R.Dankoff tarjimasida .....	181
<b>Fayzieva D.U.</b> Development of speech culture in russian language classes .....	183
<b>Husainova Sh.E.</b> "Qutadg'u bilig"ning inglizcha tarjimasida iloh tushunchasining ifodalanishi .....	185
<b>Khodjieva R.A.</b> The tendency of creating a modern textbook .....	187
<b>Nigmatova L.X.</b> O'zbek tilining umumiy izohli lug'atlarida til va ma'naviyat yaxlitligi muammosi .....	189
<b>Pirnazarova M.M.</b> Tarixiy haqiqat va badiiy talqin .....	194
<b>Rajarova U.</b> "Lahjatu-l-lug'ot" – alisher navoiy asarlari leksikasi tadqiqida muhim manba .....	197
<b>Sharakhimov Sh.F.</b> Helpful strategies to reinforce vocabulary .....	199
<b>Sodiqova I.I.</b> Instructional strategies for teaching efl classes with students of different levels .....	201
<b>Talibjanova A.L.</b> Theoretical basis of youth slang in the publicist discourse of the english language .....	204
<b>Xamidova T.R.</b> Zamonaviy nemis tilida yangi atamalarni shakllantirish usullari .....	206
<b>Абдуллаев Х., Ражаббоева Н.</b> Огаҳий ижодининг теран талқинлари .....	207
<b>Артыкова Г.Ш., Ваисова А.</b> Цветовые прилагательные в художественном тексте .....	210
<b>Атаханова В.Р.</b> Адабиёт дарсларида Ғ.Ғуломнинг ўхшатиш санъатидаги маҳоратини ўргатиш .....	213
<b>Гафарова З.З.</b> Тема – рема нутқий тузилмалари ва уларнинг контекст билан ўзаро муносабати .....	216
<b>Гафурова Д.Х.</b> Формирование грамматического строя речи дошкольников .....	219
<b>Гудзина В.А.</b> Проблема реализации концепции счастья в поэзии Зульфии .....	222
<b>Ғаниева О.Х., Садуллаев Ф.Б.</b> Жон Стейнбекнинг "Жавоҳир" ҳамда Одил Ёқубовнинг "Муқаддас" қиссалари қиёсий таҳлили .....	225
<b>Дарвишов И.</b> Наманган қипчоқ шевалари фонетик-фонологик тизимидаги ундошларнинг тарихийлик белгилари .....	230

process, in relation to which the potential of this textbook is realized through the teacher's mediation art. They form an indissoluble triad, discovering and realizing in it the completeness of the properties of each within the system and determining only in this interaction the highest cumulative, integrative effect. In this case, the textbook as a separate system and its functioning as a component of the "teacher-student-textbook" system must comply with the following principles:

1) Humanitarization - the subject of foreign language education is a person (student): the development of his abilities, skills, value attitudes and culture, taking into account his individual characteristics, as well as the peculiarities of the processes of perception and generation of information;

2) Scientific character - all basic categories of the textbook and their relationship should be determined by a deep methodological justification; the textbook should demonstrate the latest achievements of the humanities (content) and the level of culture of foreign language education (technology);

3) The integrity of the picture of the world - the intended content of the textbook and work with it should allow the student to recreate the integrity of the picture of the world, to ensure awareness of the various connections between his objects and phenomena;

4) Clarity - the textbook should have an abundance of graphic material (diagrams, drawings, pictures, illustrations), facts, examples, statistics, bibliography - so that the student can, relying on this material, make independent and meaningful conclusions and choice;

5) Instrumentalities are subject-specific mechanisms embedded in the textbook, contributing to the development and practical application of the acquired knowledge in authentic typical situations of society, the language and culture of which are mastered with the help of this textbook. This is not only theoretical and practical material and exercises, but the creation of conditions for the application of knowledge in solving specific problems. It is a permanent organization to search for information within the textbook, training kit and beyond. Instrumentality is also the maximum placement of the methodological apparatus in the body of the textbook, designed for individual, pair, group work;

6) Interactivity - direct dialogue between the student and the textbook outside the lesson: referring to the computer, tasks for self-checking, problematic questions, etc.

Thus, the comprehension of domestic and foreign experience and traditions of developing textbooks on foreign language culture through the prism of the theory of modern foreign language education and textbook theory could be the basis for creating new generation textbooks in a foreign language.

#### REFERENCE:

1. Bim I.L. Theory and practice of teaching the German language in secondary school. M.: Education, 1988. P. 12-13.
2. Passov E.I. The content of foreign language education as a methodological category // Foreign languages at school. 2007. No. 6. P. 13-23.

UO'K 81'374

### O'ZBEK TILINING UMUMIY IZOHLI LUG'ATLARIDA TIL VA MA'NAVIYAT YAXLITLIGI MUAMMOSI

*L.X. Nigmatova, f.f.n., dots., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

*Annotasiya. Maqolada o'zbek tilining izohli lug'atlarida til va ma'naviyat yaxlitligi muammosi, til va ma'naviyat uyg'unligi jahon lug'atchiligida tutgan o'rni haqida ma'lumot berilgan.*

*Kalit so'zlar: til, ma'naviyat nutq, leksikografiya, lug'atchilik, termin, izohli lug'at, paradigma, munosabat.*

*Аннотация. В статье описано проблема целостности языка и духовности в толковых словарях узбекского языка, роль гармонии языка и духовности в мировой лексикографии.*

*Ключевые слова: язык, духовность, речь, лексикография, терминология, глоссарий, парадигма, связь.*

*Abstract. The article describes the problem of the integrity of language and spirituality in the explanatory dictionaries of the Uzbek language, the role of harmony of language and spirituality in the world lexicography.*

*Key words: language, spirituality, speech, lexicography, terminology, glossary, paradigm, connection.*

*Til, ma'naviyat, madaniyat* atamalarining o'zbek leksikografiyasidagi izohi oson sharhlanadigan masala emas. Xususan, Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da o'zbek adabiy tili lug'at boyligidagi turkiy qatlamga etimologik izoh berish maqsad qilib olingani tufayli ushbu izohli lug'atdagi boshqa tillardan olingan so'zlar nazardan soqit qilingan [1,c.560]. Ushbu holat **ma'naviyat** so'zining aslida turkiy so'z emasligini ko'rsatadi. Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning XI asrda yaratilgan "Devonu lug'otit turk" asarining indeks-lug'atida umumiy holda inson ma'naviyatini mujassam etuvchi fazilatlarini ifoda etuvchi matal, maqollarning sirasi namoyon qilgan. Ushbu lug'at bo'yicha H.Hasanov, E.Fozilov, S.Mutallibov, M.Ziyaeva va boshqalar tekstologik va leksikografik tadqiqotlar olib borishgan [2,c.120]. Biroq har ikki lug'atning tilida ham tekshirilayotgan so'zning mavjudligi kuzatilmadi.[ 3] Masalan,

*Bayat kimka bersa uqush o'g bilig,*

*O'kush edgulikka uzatti ilig.*

(Xudo kimga uquv, aql va bilim bersa,

Bunday odam ko'p ezguliklarga qo'l uzatadi)

(Mahmud Qoshg'ariy, "Devonu lug'otit-turk")

Shuningdek, XI-XIII asr lug'atchiligining noyob durdona asari, muallifi noma'lum "Attuhfatuz-zakiyatu fil-lug'atit turkiya"da ham **ma'naviyat** va **madaniyatga** dahldor izohlar uchramaydi. Garchi lug'at tarkibiga ba'zi forsiy-arabiy so'zlar ham kiritilgan bo'lsa-da, umumiy holatda ijtimoiy-maishiy leksika sirasida muallifning faqat **til** leksemasiga bergan qisqa izohi uchraydi. Unda ham o'sha davr muhiti va shart-sharoitida til va madaniyat mushtarakligiga doir ma'lumotlar mavjud emas. "Tuhfa"da keltirilgan ko'rsatkichdan farqli ravishda, "Devonu lug'otit-turk" indeksida keltirilgan **til** so'ziga mutaxassislar bir necha sharh yozganlar. Ular quyidagilar:

Til. I – til, lison - язык (вообще).

Til. II. – so'z, kalom – слово.

Til. III. – sheva – наречие; **og'uz tili** – огузское наречие. **ujg'ur tili** – уйгурский язык.

Til. IV. – asir – язык (пленник); **til tutti** – til tutdi – взял языка.

Til. V. – til. *anat.* – язык. [ 4,c.255]

Ko'rinadiki, XI asrda ham **til** so'zi barcha o'rnlarda milliy-madaniy xoslanishni ifoda etgan.Til va madaniyat, ma'naviyatning uyg'un holda kelishini o'rganarkanmiz, bevosita o'zbek lug'atchiligining tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlashimiz zarur. Binobarin, lug'atchiligimizga zamon, makonning ta'siri biz tekshirayotgan mohiyatning qirralarini yoritishga asos bo'ladi.

O'zbek lug'atchiligi tarixini o'rgangan mutaxassislar uning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha belgilaydilar.

1. XI-XIII asrlar: Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit – turk", "Attuhfatuz-zakiyatu fil-lug'atit turkiya". [ 5,c 45]

Ushbu bosqichga biz XIV asrda yartilgan "Tarjumon turkiy va ajamiy va mo'g'uliy" ("Tarjumon"- Halil ibn Muhammad ibn YUsof al-Qunaviy)ni ham mansub qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

2. XV asrdan 1862 yilgacha bo'lgan davr: Tole Hiraviyning "Badoe al-lug'at", Mustafobinni Sodiqning "Abushqa", Mirzo Mahdixonning "Sangloh" lug'atlari.

3. 1887 yildan 1917 yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda ikki tilli lug'atlar shakllandi. Asosan, ruscha-o'zbekcha bo'lgan bu lug'atlar orasida A.Старчевскийning "Спутник русского человека в Средней Азии" (13000 so'z), Ш.Ишаевning "Краткий русско-сартовский и сартовско-русский словарь", В.Наливкин, М.Наливкиналарning "Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда" (8500+4200 so'z), С.Лапиннинг "Карманный русско-узбекский словарь" singari lug'atlari mavjud.

4. 1917 yildan keyingi davr. Olti tomli "Ruscha-o'zbekcha lug'at" (1950-1956 y.), "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981 y.), "Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati" (1965 y.), "O'zbek Sovet entsiklopediyasi", "U kim? Bu nima? Bolalar entsiklopediyasi", "Uy-ro'zg'or entsiklopediyasi", "Salomatlik entsiklopediyasi" va b. Shuningdek, A.Hojievning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (1974), SH.Rahmatullaevning "O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'ati" (1978), M. Sobirovning "Matematikadan ruscha-o'zbekcha lug'at" (1977), N.Hatamovning "Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at" (1960), "Imlo lug'ati" (1976), R.Qo'ng'urov, A.Tixonovlarning "O'zbek tilining chappa lug'ati" (1968), "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" (1977), A.G'ulomov, A.Tixonov, R.Qo'ng'urovlarning "O'zbek tilining morfem lug'ati" (1977).

Ushbu lug'atlarda:

1) sho'rolar tuzumining hukmron mafkurasi yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Hatto siyosatdan xoli bo'lgan imlo, sinonimik, orfoepik, qo'shma so'zlar lug'atlarida ham leksemalarni izohlash uchun misol tanlanganda hukmron mafkuraga mos kelish-kelmasligi e'tiborga olinardi;

2) lug'atlarni yaratishda e'tibordagi shaxslarning gapi birinchi navbatda hisobga olinardi. Shu bois, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini bilan bog'liq leksemalarni izohlashda sun'iy izohlarga, chalkashliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, R.Abdurahmonov, V.V.Reshetov kabi olimlar tahriri ostida nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha lug'at"larda *polevod* so'zi *dala mudiri* tarzida tarjima qilingan; [6, c.596]

3) rus tilida "Школьный математический словарь", "Этимологический словарь юного филолога", "Школьный словообразовательный словарь" kabi yuzlab o'quv xarakteridagi lug'atlar ham yaratilgani holda o'zbek tilida uzoq vaqtlar mobaynida imlo va tarjima lug'atlarini qayta nashr qilishdan nariga o'tilmadi. Garchi *ma'naviyat*, *madaniyat*dek o'zaro bog'liq tushunchalar turkiy tilda va umuman, eski o'zbek tilida uchramasa-da, o'zaro vobasta bu ikki so'z turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan, uning qadriyat tizimining eng sara konstantalari, tafakkur tarzining asosini tashkil etuvchi konseptlar ekani tengsiz tarixiy, ilmiy-adabiy merosimizdan ma'lum. Zero, tevarak-atrofdagi, G'arbda ilg'or ong vakillari etishib chiqishiga zamin hozirlanayotgan vaqtda G'azzoliy, Ibn Sino, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Rumiy, Alisher Navoiy singari ajdodlarimiz *ma'naviyat* atalmish olamning mohiyatiga teng falsafani dunyo ilmfaniga tortiq etib bo'lgandilar.

"Madaniyat" atamasi bugungi kunda ko'proq quyidagi mazmunda ishlatiladi:

-ma'naviy, estetik, intellektual rivojning umumiy ko'rinishiga qisman mavhum tarzda berilgan baho;  
- huquq, tartib, intizom, ma'naviy komillikka va demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyat holatini tavsiflash (bu vaziyatda madaniyat atamasi ko'proq tsivilizatsiya atamasi bilan sinonim ravishda qo'llaniladi);

- biron-bir jamiyatning, jamoaning, guruh a'zolarining yoki tarixiy jarayonning mavjudligini (yoki mavjud bo'lganligining), ularning o'ziga xos takrorlanmas xususiyati borligini ko'rsatuvchi holat;

- kishilarning intellektual va badiiy faoliyati (musiqa, adabiyot, tasviriy san'at, teatr, kino va hokazo) mahsulini bildiruvchi jarayon.[7,c 144]

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgunga qadar ilmiy adabiyotlarda *ma'naviyat* mustaqil ilmiy tushuncha sifatida qo'llanilmagan edi. Lug'atlarda *ma'naviyat* tushunchasi va uning tamoyillariga o'ziga xos izoh va ta'riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab *ma'naviyat* tushunchasi keng ma'noda jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisa ekanligidir.[8,c.18-20 ]

A.Erkaevning fikricha, "Ma'naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir" [9,c.27].M.Imomnazarov dastlab"Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...", [10,c. 6] - deb yozgan bo'lsa, keyinchalik "Ma'naviyat – inson qalbida, ko'ngil ko'zgisida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta'rif darhaqiqat, so'fiyona ramziy ta'rifdir, zotan boshqacha ta'rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo'yadi", [11,c.14]- deb yozadi. E. Yusupov insonda mavjud bo'ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiylarigina ma'naviyat bo'la olishini ko'rsatib: "Ma'naviyat – inson axloqi, odobi, bilimi, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir" – deb ta'riflaydi.

*Ma'naviyat* semantikasining globallashuvi, aytish mumkinki, Markaziy Osiyoga tasavvuf ta'limotining tarqalishi bilan izohlanadi (*Gah o'zimni suvg'a urdum, goh o'tga dam-badam, Bo'lmadi davron safosi lahza boshimg'a kam, To shariatni tutub qo'ydim tariqatga qadam, Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam, Ma'rifatdin bexabarsen, gavharimni kavlama!* Furqat). Zero, *ma'naviyat*ning asl mohiyati Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy singari mutasavvufning ijodida o'zining yorqin ifodasini topdi. Xususan, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi Hudhud va tog' Kakligi o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat ma'naviyatning aslidagi qiymatiga ishora beradi:

**Kaklik:** Yurishim doim kon ustida bo'lgandan keyin bu ishda orzuim gavhardir. Ma'naviy gavharni qoiga kiritish hamon qiyin ish bo'lib qolmoqda. SHunday ekan, bu yo'l menga bema'ni sayrdan boshqa narsa emas-ku!..

**Hudhud:** Ey behuda xayollarga berilgan! Dimog'ingda behuda xayoldan boshqa narsa yo'q ekan. Tog' orasida uzlatga chekinib, odamlardan uzoqlashdim, deb aytding. Aslida, bu go'shanishinlik emas, nafsu havoga berilishdir. Tog' va cho'qqilar ustida u yoqdan hu yoqqa tinmay

yugurganing-yugurgan! Har lahza telba kishilar kabi behuda qahqaha otishing ham o'rinsiz. Ma'naviy gavhar haqida ham nomunosib so'zlar aytding. Ey, jahl bilan mast bo'lib, faqat o'zini o'ylovchi, sen qayoqdayu ma'naviyat qayoqda! Bu xil yolg'on so'zlar bilan muttahamlik qilib, ma'no gavhari haqida og'iz ochma! O'z so'zlaring bilan asl zoting pastligini, bema'ni va badbaxtligingni ko'rsatding.

(Alisher Navoiy, Lison ut-tayr).

Keltirilgan parcha XX asr o'zbek adabiy tiliga "o'girilgan" lavha bo'lganligidan, *ma'naviyat* so'zining adib ijodidagi ishtirokini "Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at"dan izlaymiz. Mazkur lug'atda *ma'naviyat* so'zi va unga ma'nodosh so'z keltirilmagan. SHuningdek, *madaniyat* so'zi ham uchramaydi. Biroq hozirgi zamon o'zbek tilidagi *til* so'zining mumtoz varianti bo'lgan *lison* so'ziga shunday ta'rif beriladi: **lison** – ko'pligi **alsina**, til; **lisoni nuqtapardoz** hikmatlar aytuvchi til; **qush lisoni** qush tili; **arab lisoni** arab tili; **lison og'rig'i** so'z zahri; **lisonu-l-g'ayb** g'aybdan gapiruvchi, sirlarni biluvchi. Ko'rinadiki, bu erda ham tilning substansiyasi tasavvufiy yondashuv orqali talqin etilgan.

O'rganilayotgan so'zning etimologiyasi hamda o'zbek tilida o'zlashtirilish tarixi masalasi, yuqorida ta'kidlanganidek, nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki o'zbek ilm-fanida ham tadqiqotlab mavzulardan sanaladi. Holbuki, 2010 yilda "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyatida chop etilgan "Falsafa" ensiklopedik lug'atida ham mazkur so'zning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati borasida tadqiqotchini qanoatlantiruvchi bilimlar uchramaydi. Keltirilgan ma'lumotlarning aksariyati umumiy xarakterda bo'lib, *ma'naviyat*ning mohiyati ochilmay qolgan [12, c.178-179]. Shu o'rinda haqli ravishda qayd etish kerakki, o'zbek tili turkiy tillarning bir tarmog'i sifatida o'z ichki boyish manbaiga ega bo'la turib, doimiy ravishda Hind-Evropa tillarining ta'sirida qolib kelgan hamda o'zbek tilshunosi Abdurauf Fitrat "Ishtirokiyun" gazetasining 1919 yil 12 iyun sonida "Tilimiz" sarlavhali maqolasini e'lon qila turib, o'zbek tilini "baxtsiz til" deb atashida jon bor. YA'ni Ibn Sino, Forobiy, Rumiy, Javhariyni turk zamini farzandlari sifatida ulug'lagan ma'rifatparvar ularning asl ona tili – o'zbek tilining davrlar osha o'zga tillar iskanjasida qolganini iztirob bilan yozadi. [13, c.4 ]

Demak, o'zbek tilshunosligining tamal toshini o'tagan qadimiy turkiy lug'atlarimizda mazkur atamaning uchramasligi tabiiy hol bo'lib, *ma'naviyat* mohiyatan leksema sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan leksikalizatsiya va u orqali terminlashish jarayoniga uchrab, ommalasha boshlagan deb taxmin qilish mumkin.

XX asr boshida adabiy til va uning turli-tuman uslublari va janrlari rivojlangan sari ko'pgina arabcha so'zlar o'zbekcha yoki rus tilidan kirgan so'zlar bilan almashtirildi. Masalan, 20-yillarning o'rtalarida A.K.Borovkovning hisobiga ko'ra, vaqtli matbuot tili leksikasida arab so'zlari 32,1 foizni, tojik so'zlari 5,5 foizni, internatsional so'zlar 2 foizni, asli o'zbek so'zlari 60 foizni tashkil qilgan (hisob "Zarafshon" gazetasining 1923 yil 25 mart soni bo'yicha o'tkazilgan). [14 ]

Endi o'zbek lug'at tarkibidagi *ma'naviyat* so'zining nega hadeganda lug'atlardan joy olmaganligi bir qadar oydinlashdi. Tabiiyki, sobiq sho'ro davrida ham "O'zbek tilining izohli lug'ati" (M., 1981) yaratildi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, bu lug'atda so'zlarning sodda va sifatli leksikografik tavsifiga erishilganligiga qaramasdan, mustaqillik arafasida va mustaqillikning ilk yillarida bu lug'at ancha e'tirozlarga sabab bo'ldi, jiddiy tanqid ostiga olindi. Bunda lug'atda *ruscha-baynalmilal* so'zlarning behad ko'pligi, unda o'zbek tili boyligining etarli darajada aks etmaganligiga asosiy e'tibor qaratildi. Bu e'tirozlarda haqiqat bor edi. Milliy mentalitetimiz va ming yillik madaniyatimiz ma'naviyatimizning mag'zi-mohiyatini tayin etadigan juda ko'p tushunchalarni ifodalaydigan, masalan, *ajr*, *aziz-avliyo*, *vorisiylik*, *ma'naviyat*, *millatparvar*, *qadriyat* kabi bir qancha so'zlarga mazkur izohli lug'atda joy topilmagan edi [15]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga doir e'tirozlarga sabab bo'lgan jihatlarni lug'atda sharhlangan *ma'naviyat*, *madaniyat*, *til* so'zlari misolida ko'rib chiqamiz.

Lug'atda *ma'naviyat* so'zi aynan izohlanmasdan, uning sifat va ravish yasovchi formantlar bilan kelgan shakllari ifoda topgan.

**MA'NAVIY** – [a] 1 Kishining ichki, ruhiy hayotiga oid. *Ma'naviy ehtiyojlar. Ma'naviy yordam.* – YOsh sovet o'qituvchisining har bir ishi zag'chako'z domlaga ma'anviy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham zarba edi. P.Tursun, O'qituvchi.

2. ayn. **axloqiy Kishining ma'naviy qiyofasi.**

**MA'NAN** - [a] *rvsh* 1 Ma'naviy jihatdan, ruhan. *Uning [YUsufbek hojining] har bir ra'yiga Normuhammad qushbegi qonunan majbur bo'lmasa-da, ma'nan bir majburiyat his etar edi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Ma'nan va jisman ezilgan ... Anvar... go'yo hushsiz kabi boshini ikki qo'li orasiga olib, sandal ustiga engashdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

**MA'NI** – [a] s.t. 1 Ma'no. – *Gap-so'zda ham bir ma'ni bo'lishi kerak, - dedi Gulshan.* A.Qodiriy, Mehroyudan chayon.

2 Aql, es-hush. – *Soli aka, sizga qachon ma'ni kiradi? – jahl bilan dedi Yormat.* Oybek, Qutlug' qon.

Lug'atda *ma'no* o'zakli yana *ma'no*, *ma'nodor*, *ma'nodosh*, *ma'noli*, *ma'nosiz*, *ma'nosizlik* singari so'zlar izohlangan, umumiy holda leksik semantikaning ko'lamini ochishga urg'u beriladi.

*Madaniyat* so'zi lug'atda *madaniy*, *madaniylashmoq*, *madaniy-maishiy*, *madaniy-maorif*, *madaniy-ommaviy*, *madaniy-oqartuv*, *madaniy-tarbiyaviy*, *madaniyat*, *madaniyatli*, *madaniyatsiz* shakllarida berilgan, sharh uchun keltirilgan misollar sobiq sho'ro mafkurasiga zid kelmaydigan, aksincha uning g'oyaviy yo'nalishini madh etuvchi jumalarni tashkil etadi. Qayd etish kerakki, yuqorida tilga olingan "Filosofiya lug'ati"da ifoda topgan sotsialistik mafkura g'oyalari ushbu izohli lug'atga ham ta'sir etmay qolmagan. Jumladan, lug'atdagi "Madaniyat" maqolasiga berilgan ta'rif quyidagilardan iborat:

**MADANIYAT** [a] 1 Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. *Sovet Ittifoqi ilg'or madaniyatga ega bo'lgan mamlakatdir. O'zbekistonning madaniyati yildan-yilga yuksalmoqda.*

2 Biror ijtimoiy grupp, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi. *Sotsialistik madaniyat. Proletar madaniyati. Burjua madaniyati.* Biror xo'jalik yoki aqliy mehnat sohasining rivojlanganlik darajasi. *Dehqonchilik madaniyati. Nutq madaniyati. Muzika madaniyati.*

3 O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat. *Madaniyatdan orqada qolmoq. Madaniyatga erishmoq.* Turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari yig'indisi. *Turmush madaniyati. Maishat madaniya.* [16,c.439]

Maqola uchun saralangan misollarning aksariyati jonli xalq tilidan uzilgan "o'lik" jumalar. Shuningdek, *maishat madaniyati* tushunchasining g'alizligi undagi ma'noning maqola mundarijasida ilgari surilgan sho'ro madaniyatiga ters kelishida ko'rinadi: *sotsialistik madaniyat – maishat madaniyati*. Qolaversa, bundagi **madaniy-maorif** juftligi uslubiy-morfologik jihatdan noto'g'ri so'zdir (uni noto'g'ri yasalgan so'z deb ham qabul qila olmaymiz, chunki uning shu holatida so'zlik maqomi mavjud emas). Holbuki, V.fon Gumbldt tillarning grammatik jihatdan farqi xalqlarning grammatik nazari, idroki(grammatische Ansicht)dagi farq bo'lganidan lug'atga nisbatan grammatikada millatning ruhiy o'ziga xosligi ko'proq aks etadi deb yozgandi.[17,c 608 ]

Bu narsa leksikologiya bilan parallel ravishda rivojlanuvchi, o'zida muayyan davrda yashagan xalqning ijtimoiy hayoti, kasb-kori, qiziqishlari, intilishlari, ilm-fani, madaniyati va san'atini to'liq aks ettiruvchi leksikografiya – lug'atshunoslik takomiliga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu ta'riflarning *ma'naviyat* maqolasiga aloqadorlik jihatlari o'rganilganda, quyidagilar aniqlandi. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning 1981 yildagi nashridan farqli, ushbu lug'atda *ma'naviyat*ning: **ma'naviy**, **ma'naviyat**, **ma'n** so'zshakllari izohlanadi. YA'ni:

**Ma'naviyat** [a. axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar] Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.k. tushunchalari va tasavvurlari majmui.

**Ma'naviy** [a. ma'noviy; aqliy; mavhum; axloqiy] 1 Ma'naviyatga oid, ma'naviyat, axloq bilan bog'liq.

**Ma'n** kam. qo'll. 1 Ma'naviy jihatdan, ma'naviy tomondan. 2 Ma'no jihatdan, ma'nosiga ko'ra.[18,c.565 ]

SHuningdek, *madaniyat* termini mazkur lug'atda quyidagicha izohlangan:

**Madaniy** [a. shaharlik; madinalik, Madinaga xos] 1 Madaniyatga oid, madaniyat, ilm-ma'rifat bilan bog'liq, madaniyat sohasidagi. 2 Madaniyatli, madaniyatni egallagan; madaniyatga erishgan, madaniyat talablariga javob beradigan. 3 q.x. Kishi qo'li, mehnati bilan ekiladigan, etishtiriladigan.

**Madaniyat** [a. tsivilizatsiya] 1 Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. 2 Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi. 3 O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat. 4 Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit. 5 q.x.(O'simlik yoki ekinning turlarini) etkazish, o'stirish, etishtirish.

**Madaniyatli** Madaniyatga erishgan, madaniyatni egallagan; ma'rifatli.

**Madaniyatsiz** Madaniyati yo'q, madaniyatdan orqada qolgan; ma'rifatsiz.[19,c. 520]

Ko'ringanidek, bu nashrda **ma'naviyat**, **madaniyat** terminlarining tegishli so'zshakllariga izoh beriladi. Biroq mazkur ta'riflarda bugungi antropotsentrik talqin izidan shiddat bilan rivojlana borayotgan ilm-fan, umuman tilshunoslikni qoniqtira oluvchi ma'lumotlar etarli emas. Biroq lug'atda *tilga* berilgan izohlar birmuncha mukammallikni ifoda etib, bu asosan, **til** maqolasida o'zining yorqin



namunasini topgan: 1 Kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o'rganish ob'ekti. 2 So'zlash, gapirish, fikr ifodalash qobiliyati. 3 Fikr ifodalash jarayoni va bu jarayonda yuzaga keluvchi so'z, ibora, gap, nutq. 4 Fikr ifodalash, aloqa quroli bo'lib xizmat qiladigan tovush, so'z va grammatik vositalar tizimi. 5 Nutqning o'ziga xos ifoda vositalari va b. xususiyatlari farqlanadigan bir turi. SHuningdek, *til* so'ziga uning ko'chma ma'noda keladigan variativ ifodalarning ham izohi berilgan bo'lib, bu holat o'quvchida *til* tushunchasi borasida atroflicha bilim va ma'lumotga ega bo'lish imkonini yaratgan. Lug'atdan, shu singari, *til* tushunchasi bilan bog'liq: **tillashmoq, tilmoch, tilmochlik, tilovat, tilsiz, tilsizlanmoq, tilxat, tilcha, tilchi, tilchilik, tilshunos** maqolalari ham o'rin olgan bo'lib, lug'atning eski nashridan batamom tafovut etuvchi ushbu yondashuvda bugungi o'zbek tilshunosligining taraqqiyot borasidagi aniq siljishlari seziladi. Masalan, *til* va *nutq* hodisalarining birgalikdagi tasnifini talab etuvchi **tilovat** maqolasining lug'atga kiritilgani – tilshunoslik sohasida butun millat ma'naviyati orqali tushuntiriladigan kontseptlarning erkin talqiniga keng yo'l ochilganini isbotlaydi. Bu erda *til*, *madaniyat* va *madaniyat* uyg'unligini aks ettiruvchi sharhlarning ko'zga tashlanishi mustaqillik yillari mobaynida o'zbek tilshunosligiga o'z ta'sirini o'tkazgan sistem-struktur, lingvokul'turologik yondashuvlarning millat tili va ruhiyatidan nari ketib bo'lmasligini takror isbotlaydi. Quvonarlisi shundaki, ijtimoiy-falsafiy, fan sohalariga oid chop etilayotgan lug'atlarda ushbu masalaga hanuz bee'tiborlik bilan qaralayotgan bir vaqtda tilshunos olimlarimiz *til* va millat ruhining o'zaro uyg'unligini qayta dalillashga muvaffaq bo'lishmoqda.

Til taraqqiyoti millatning ma'naviy yuksalishga bo'lgan ehtiyoji negizida yuzaga chiqarkan, qator lug'atlarning mundariyasi doimiy tarzda takomillashtirilib borishi shart. Negaki, lug'atlarning muntazam mukammallashib borishi, o'z navbatida millat madaniyatining zamonga mos tarzidagi yuksalishini ta'minlaydi. Qolaversa, millat tilida yaratilgan keng qamrovli lug'atlar kelajakda o'zbek tili Milliy korpusini yaratishdagi dolzarb muammolarni oson hal etish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 560 b.
2. Hamraeva YO. Fe'llar misolida ideografik lug'atlar tuzish. – Toshkent, 2014.
3. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. – Toshkent: Fan, 1967.
4. Devonu lug'otit turk. Indeks-lug'at. – Toshkent: Fan, 1967. – 558 b. – B. 255.
5. Hamraeva M. Fe'llar misolida ideografik lug'at tuzish. – Toshkent, 2014.
6. Русско-узбекский словарь /под ред. Р.Абдурахмонова.-М.: Гос.изд-во иностранных и национальных словарей, 1954.с.596; Русско-узбекский словарь. Под общим руководством В.В.Решетова.- Ташкент:Ўқитувчи, 1972.– с. 63. Yana qarang: Hamraeva M. Fe'llar misolida ideografik lug'atlar tuzish. – Toshkent, 2014.
7. Bekmurodov, Mansur. Madaniyat sotsiologiyasi [Text]: o'quv qo'llanma/ M.Bekmurodov, N.Yusupova; Mas'ul muhar.: M.Quronov; – T.: Yangi nashr, 2010. – 144 b.
8. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008. – b.18-20.
9. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. Toshkent. Ma'naviyat, 1997. – B. 27.
10. Imomnazarov M. Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent: Sharq, 1996 – b. 6.
11. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Toshkent: Sharq, 1999.– b.14.
12. Falsafa. Entsiklopedik lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2010. – 344 b. – b. 178-179.
13. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 4. (112 b.)
14. Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит на основе русской графики. Известия УзФВН. – № 7. 1940.
15. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. Z.Ma'rufov tahriri ostida. 1-tom. – M.: Russkiy yazik, 1981. – B. 439.
17. Zikrillaev G'. Ruh va til. – Toshkent: Fan, 2018; O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. Toshkent: Fan, 1975. – 608 b.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati. Z.Ma'rufov tahriri ostida. 1-tom. – M.: Russkiy yazik, 1981. – B. 565
19. O'zbek tilining izohli lug'ati. Z.Ma'rufov tahriri ostida. 1-tom. – M.: Russkiy yazik, 1981. – B. 520

UO'K 81-13

#### TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN

*M.M. Pirnazarova, f.f.n., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Samandarning "Tangri qudug'i" romanidagi tarixiy haqiqat va badiiy talqin haqida so'z boradi. Yozuvchi tarixiy shaxslar hayotini, tarixiy voqealarni, tarixiy faktlarni badiiy to'qimalardan unumli foydalangani holda keng epik ko'lamda badiiy tasvirlab bergani asar tahlili orqali ochib beriladi.*

*Kalit so'zlar: badiiy tasvir, tarixiy haqiqat, portret, munosabat, personaj, qiyofa, taassurot, bayon uslubi*

*Аннотация. В этой статье рекомендуется историческая правда и художественная интерпретация романа Эркина Самандара «Тангри кудуги». Анализ произведения*